

JAHON FANI VA MADANIYATI RIVOJIGA MUNOSIB HISSA QO'SHGAN ALLOMA

Qanotova Charos Bahrom qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islom "iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Elektron pochta: charosqanoatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321774>

*"Yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l,
loaqqal ilmni tinglab eshitadigan bo'l, ammo to'rtinchisi
bo'lma, chunki kasodga uchrab halok bo'lasan"*

Az-Zamahshariy.

Annotatsiya: Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan «Ustoz ul-arab val- ajam» («Arablar va g'ayri arablar ustozlari»), «Faxru Xvarazm» («Xorazm faxri») kabi sharafli nomlar bilan ataganlar. Uning dunyo taraqqiyotiga va xususan arab tili grammatikasini rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan uchun ham hozirgacha mashhur olimlar, shoirlar, adiblar va tarixchilar davrasida u doimo yuksak xotiralar bilan eslanadi. Ushbu maqolada Az-Zamaxshariy hayoti va uning ilm fanga qo'shgan hissasi to'g'risida ma'lumotlar kengroq yoritib berildi.

Kalit so'zlar: mu'taziliy, tafsir, aruz ilmi, jug'rofiya, nahvu sarf, nahv, fiqh, muxtasar, etimologiya, frazeologik, Aruz, Maqomat, saj' uslubi.

Аннотация: Глубокие знания, гениальность и бессмертные труды в различных областях науки Аз-Замахшари ещё при жизни принесли ему широкую известность во всём мусульманском Востоке. Современники с глубоким уважением называли его почётными титулами «Устаз аль-араб ва аль-аджам» («Учитель арабов и неарабов») и «Фахр Хорезм» («Гордость Хорезма»). За его огромный вклад в развитие мировой цивилизации, особенно в развитие арабской грамматики, он до сих пор с большим уважением вспоминается в кругах известных учёных, поэтов, писателей и историков. В данной статье более подробно освещаются жизнь Аз-Замахшари и его вклад в развитие науки.

Ключевые слова: Му'tазилизм, тафсир, наука об арузе, география, арабская грамматика (нахв и сарф), нахв, фикх, мухтасар, этимология, фразеология, аруз, макаमत, стиль садж.

Abstract: The profound knowledge, genius, and immortal works in various fields of science of Az-Zamakhshari brought him great fame throughout the Muslim East during his lifetime. Scholars and contemporaries respectfully honored him with such prestigious titles as "Ustadh al-'Arab wa al-'Ajam" ("Teacher of the Arabs and non-Arabs") and "Fakhr Khwarazm" ("The Pride of Khwarazm"). Due to his enormous contribution to the development of world civilization, particularly to Arabic grammar, he continues to be remembered with deep respect by prominent scholars, poets, writers, and historians. This article provides detailed information about the life of Az-Zamakhshari and his significant contributions to science and scholarship.

Keywords: Mu'tazilite theology, Qur'anic exegesis (tafsir), science of prosody ('arud), geography, Arabic grammar (nahw and sarf), syntax (nahw), Islamic jurisprudence (fiqh), mukhtasar (concise treatise), etymology, phraseology, 'Arud, Maqamat, saj style.

Ko'hna Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abul qosim az-Zamaxshariy ana shunday ulug' siymolardan biridir. Allomaning to'liq ismi Abul qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo'lib, u hijriy 467 yil rajab oyining 27-kuni (1075-yil 19-mart) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topdi. Otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksar vaqtini Qur'on tilovatiyu namoz o'qish bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidida imomlik ham qilgan. Az-Zamaxshariyning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan¹ Az-Zamaxshariylar oilasi islomning mu'taziliy ta'limotiga mansub bo'lib, yosh Mahmudning dunyoqarashi mana shu dindor, taqvodor otasining ta'sirida shakllandi va dastlabki bilimni ham o'z otasidan oldi. Otasi serfarzand bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib shoir qasidalaridan birida otasining farzandlari ko'p va oilasi katta bo'lgan tufayli ham tirikchilik yo'lida tinmay mehnat qilgani haqida yozib qoldirgan. Alloma haqidagi manbalardan ma'lumki, uning bir oyog'i yog'ochdan bo'lib, tarixchilar bu haqda: "Bir oyog'i yog'ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko'rgan odam uni cho'loq deb o'ylardi", – deb yozganlar. Og'ir illat tufayli u yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan va shundan so'ng otasi uni endi og'ir mehnatga yaramaydi, deb kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o'sgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi. Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalarini bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallashga kirishadi, o'sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egallab, o'z tirikchiligini birqadar tuzatadi. Arab tarixchisi va biografi Ibn Xallikonning yozishicha, talabalik yoshiga yetgach, bilimni yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida **Buxoroga** yo'l oladi. Buxoro, mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) iboras bilan aytganda: Somoniylar davridan boshlab shon-shuhrat, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan; yer yuzi adiblarining porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan joy edi. [2:120]. Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi, maqsadlarining ushaliishiga umid bog'laydi. 1118-yili Zamaxshariy og'ir dardga chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmati, mansab va mol-dunyodan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, asarlar ta'lif etishga astoydil qaror qiladi. Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy bizga boy va ulkan ilmiy- ma'naviy meros qoldirgan. U tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz, odob-axloq, mantiq, jug'rofiya, tafsir, hadis, fiqh va ilm al-qiroatga oid oltmishga yaqin asarlar yaratgan bo'lib, ularning aksariyati bizgacha etib kelgan. Az-Zamaxshariy ijodining keng ko'lamliligi va uning ilm-fan olamida tutgan yuksak maqomini bilish maqsadida allomaning zamondoshlari va keyingi asrlarda yashagan tadqiqotchilar u haqda aytgan fikr-mulohazalardan ayrimlarini keltiramiz. Mashhur arab tarixchisi Ibn al-Qiftiy u haqda bunday degan: «Alloh rahmat qilg'ur az-Zamaxshariy ilmul-adab, nahv-sarf va lug'atshunoslik bobida boshqalarga namuna bo'ladigan benazir alloma edi. U o'z hayoti davomida ko'plab buyuk olimlar va fozillar bilan uchrashgan bo'lib, tafsir, hadis, nahv-sarf va boshqa sohalar bo'yicha bir qancha asarlari bor. U o'z asrida arab tilida ijod qilgan ajamlilar (g'ayri arablar) orasida eng buyugidir». Atoqli olim Ibn Xallikon: «Az-Zamaxshariy hazratlari tafsir, hadis, nahv-sarf, lug'at va ilmul-bayon bo'yicha buyuk allomadir. Hech bir mubolag'asiz, mazkur

¹ Z. Islomov, S. Saidjalolov. Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. – T.: "Movarounnahr", 2011. – B 8

ilmalarda u o‘z davrining yagonasi, ko‘pdan-ko‘p ajoyib asarlarning muallifi edi», – deb yozadi. Az-Zamaxshariydan bir necha asr keyin yashagan taniqli Misr tarixchisi Ibn Tag‘riberdi alloma to‘g‘risida: «Shayx, buyuk alloma, o‘z davrining yagonasi, o‘z asrining eng peshvosi va imomi bo‘lgan», – deb qayd qilgan. Tilshunoslik va grammatikaning turli masalalariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o‘rini bor. [uniwork.buxdu.uz/-153-B].

Zamaxshariy hayoti davomida ,Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag‘dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo‘ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug‘atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o‘rgandi, bu mintaqa geografiyasiga oid xilma-xil ma‘lumotlarni to‘pladi. Adib ko‘p asarlarini Makkaligida yaratadi. O‘z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh (“Allohning qo‘shnisi”) degan sharafli nomga muyassar bo‘ladi. Az-Zamaxshariy juda ziyarak va talabchan bo‘lgan. U avvalgi grammatikachilarning asarlarini o‘rganib, ularni tartibsiz va tizimsiz deb hisoblagan. Shu bois u arab tili grammatikasining sintaktik va morfologik jihatlarini mantiqiy tartibda, oson tushuniladigan shaklda bayon etishni maqsad qilgan. Bu niyatini u asarining muqaddimasida ham alohida ta’kidlagan. “Al-Mufassal” yaratilgan davridayoq tilshunoslar diqqatini tortgan va ko‘plab olimlar tomonidan sharh, izoh hamda taqqosloviiy tahlil shaklida o‘rganilgan. Arablar orasida ham bu asar katta e‘tibor qozongan va arab tilini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Xatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarupo sovg‘a qilishni va‘da bergan. “Al-Mufassal”ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi “Al-Unmazaj” (“Namuna”) nomi bilan ataladi. “Mufassal” asari arab tili grammatikasiga oid kitob bo‘lib, nafaqat Sharq, balki G‘arbda ham juda mashhur edi. Aynan shu asar tufayli olimlar: “Agar shu turk (Zamaxshariy) bo‘lmaganida edi, arablar o‘z tillari nahvi (grammatika)ni unutib yuborgan bo‘lardi”, deb aytishgan. Ushbu asarning bitta qo‘lyozma nusxasi Toshkentda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Sharhlarga misol sifatida, Jurjiy Zaydon o‘zining 1943-yilda nashr etilgan “Arab tili adabiyoti tarixi” asarida bu haqda shunday yozadi: Az-Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asari shunchalik mashhurlikka erishganki, sulton Iso ibn Ayyub bu kitobdan hayratlanib, uni yod olgan kishilarga 100 dinor va uy hadya qilgan”. Mazkur asar hijriy VII-VIII asrlarda (milodiy 1204-1301-yillar), Shom, Iordaniya, Livan, Falastin, Misr, Iroq, Al-Hijoz (Saudiya-Arabistonining g‘arbiy qismi) va Yamanda ta‘lim jarayonida o‘qitiladigan eng nufuzli grammatik manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Uning shuhrati hatto **Al-Anadalus** (hozirgi Ispaniya) gacha yetib borgan.

“**Al-Kashshof**” Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida (1132–1134) yozilgan. Nemis sharqshunosi Karl Brokelman dunyoning turli qo‘lyozma xazinalarida “Al-Kashshof”ning yuzga yaqin qo‘lyozmalari va asarning o‘ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh hamda hoshiyalar borligi haqida yozadi. Bu hol Zamaxshariy asarining katta shuhrat qozonganidan dalolat beradi. Al-Azhar University (Qohira) diniy dorulfununining talabalari ham Zamaxshariyning “Al-Kashshof” asari asosida Qur‘onni o‘rganadilar. “Al-Kashshof”ning Toshkentda, jumladan, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazoratining kutubxonasida ham bir qancha qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Olimning bizgacha yetib kelgan badiiy asarlaridan biri “Devon az-Zamaxshariy” bo‘lib, uning nodir qo‘lyozma nusxasi Misr kutubxonasida saqlanadi² [4:156].

Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlaganidek, “O‘rta asrlarda Xorazm diyorida olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko‘plab boshqa

² Abbaz Turdibaev. "Buyuk allomamiz maxmud az-Zamaxshariyning asarlarida yaxshilik, do‘stlik, oila tarbiyasi va diniy fikrlari haqida" Science and Education, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 410-418

sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamaxshariy bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi" albatta.

Zamaxshariyning chuqur bilimi va fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur ehtirom bilan "Arablar va g'ayri arablar ustoz", Xorazm faxri kabi sharafli nomlar bilan ataganlar. Mashhur sharqshunos olim, akademik I.Yu. Krachkovskiyning: "Yog'och oyoqda yurganligiga qaramasdan, Mahmud az-Zamaxshariy hazratlari o'ta harakatchanligi bilan ajralib turgan",-deb yozishi ham bejiz emas." Allomaga cheksiz ehtirom yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yilda Zamaxshariy hazratlari tavalludining 920 yilligining mamlakatimizda keng nishonlanishi, ayniqsa, alohida ahamiyat ega voqelik bo'lgan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanada so'zlagan nutqi va keyinroq, xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida qilgan ma'ruzasida ham Makka amiri Ibn Vaxxosning alloma az-Zamaxshariy haqidagi:"Dunyodagi barcha qishloqlar jam bo'lib Xorazmning birgina Zamaxshar qishlog'iga fido bo'lsa, arziydi. Chunki bu qishloq ming yillarda bir marta tug'ilishi mumkin bo'lgan az-Zamaxshariydek buyuk allomani dunyoga keltirgan", — degan samimiy e'tirofi va yuksak bahosini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Xulosa: Mahmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy merosini chuqur o'rganish nafaqat allomaga bo'lgan ehtirom, balki bugungi kun yosh avlodni tarbiyalashda, ularning qalbida vatanparvarlik, insoniy qadriyatlarni hurmat qiladigan barkamol shaxs tarbiyasi uchun ham muhim. Az-Zamaxshariy Arab dunyosida va islom olamida bundan tashqari, jahon fani madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan shaxslardan biri sifatida hayotimizda o'chmas iz qoldirdi. Bu kabi yetuk insonlarning hayoti va ijodini o'rganishimiz, barchamizga o'zgacha ruh va shijoat beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

References:

1. Z. Islomov, S. Saidjalolov. Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. – T.: "Movarounnahr", 2011. – B 8
2. Abbaz Turdibaev. "Buyuk allomamiz maxmud az-Zamaxshariyning asarlarida yaxshilik, do'stlik, oila tarbiyasi va diniy fikrlari haqida" Science and Education, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 410-418
3. <https://shosh.uz/mutafakkirlar-mahmud-zamaxshariy-1075-1144/>
5. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12642_2_4B34C1EEE02761E4389DDABF8385C6655F664200.pdf